**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI**

"TASDIQLAYMAN"
Samarqand iqtisodiyot va servis institut rektori M.E.Po‘latov

"___" __________ 2023 y.

**61010100 – "MEHMONXONA XO‘JALIGINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH" ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha turizm va mehmonxona faoliyatida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni (abituriyentlarni) sirtqi ta’lim shakliga tabaqalashtirilgan to‘lov kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish bo‘yicha suhbat o‘tkazish va baholash**

# DASTURI

SAMARQAND -2023

**Tuzuvchilar:**

S.A.Abduxamidov – Samarqand iqtisodiyot va servis institutі “Turizm” kafedrasi mudiri, i.f.f.d., dots.

R.S.Amriddinova – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Turizm” kafedrasi dotsenti, i.f.n.

**Taqrizchilar:**

I.S.Tuxliyev – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti “Turizm” kafedrasi professori, i.f.d.

B.J.Ergasheva – “Billuri Sitora” mehmonxonasi direktori

Ushbu dastur Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Kengashi tomonidan tasdiqlangan (2023 yil “30” avgustdagi 1-sonli majlis bayoni).

# KIRISH

Mazkur dastur O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyunda “2023/2024 o‘quv yili uchun davlat oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to‘g‘risida”gi F-31-sonli farmoyishi, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2021 yil 4-noyabrda “Iqtisodiyot tarmoqlarida kamida besh yil ish stajiga ega bo‘lgan fuqarolarni sirtqi va kechki ta’lim shakliga suhbat natijalariga ko‘ra tabaqalashtirilgan to‘lov-kontrakt asosida o‘qishga qabul qilish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 675-son qarorlari talablaridan kelib chiqgan holda ishlab chiqilgan.

Bugungi kunda turizm sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni tashkil etishning huquqiy-me’yoriy asoslarini takomillashtirish, mehmonxona xo‘jaligi sub’ektlarini tizimli tahlil qilish va rivojlantirish istiqbollarini belgilash, mehmonxona xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish, rejalashtirish, tashkiliy boshqaruv tarkibini shakllantirish, biznes strategiyasini tahlil qilish, qayta ishlash va uni amalga oshirish, mehmonxona xizmatlarini reklama qilish, marketing tadqiqotlarini o‘tkazish, mehmonxona xo‘jaligida sifatli va samarali xizmat ko‘rsatishni tashkil etish, mehmonxona xo‘jaligidagi korxonalarining raqobatbardoshlik oshirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

Ushbu vazifalarni bajarishda yuqori bilimli, ilmiy, pedagogik faoliyatlarni bajara oladigan mutaxassislarni tayorlash, ularni turizm va mehmonxona bizneasining turli yo‘nalishlariga keng safarbar etish asosiy vazifa bo‘lib hisoblanadi. Bu esa, zamon talablariga javob bera oladigan yetuk kadrlarni tayyorlashga bo‘lgan talabni yanada oshirmoqda.

## “Mehmonxona xo‘jaligini tashkil etish va boshqarish” ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bilim, malaka va ko‘nikmaga qo‘yiladigan talablar

Mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, ularning rivojlanish tarixi hamda ularda qo‘rsatiladigan xizmatlar turlari, mehmonxona industriyasining asoschilari va ularning faoliyati, mehmonxona xodimlarining mijozlar bilan munosabatda bo‘lish qoidasi, mehmonxona iqtisodiyotiga ta’sir qiluvchi omillar va ularni bartaraf etish yo‘llari, mehmonxona xo‘jaligida foydalaniladigan me’yoriy hujjatlar va ulardan foydalanish haqida **tasavvurga ega bo‘lishi;**

mehmonlarga ko‘rsatiladigan asosiy va qo‘shimcha xizmatlarni tashkil qilish yo‘llari, mehmonlarga xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil qilishda xorij tajribasi, mehmonxona xo‘jaligida xodimlar etiketi, sanitariya-gigena talablarini, mehmonxona xo‘jaliklarida foydalaniladigan jihozlar va ularga qo‘yiladigan talablarni **bilishi va ulardan foydalana olishi;**

mehmonlarni qabul qilish va joylashtirish, mehmonxonalarda nomerlarni bron qilish, mehmonxonalarda turli tozalash ishlarini tashkil etish, mehmonlarga ovqatlantirish xizmatini tashkil etish, mehmonxona xo‘jaligida me’yoriy hujjatlar bilan ishlash haqida **ko‘nikmalarga ega bo‘lishi** lozim.

**Mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati bo‘yicha savollar**

1. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonidagi iqtisodiy sohaga doir vazifalar mazmuni va mohiyati.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 19-iyuldagi “Ko‘rfaz arab davlatlari – Markaziy Osiyo” oliy darajadagi birinchi sammitidagi nutqida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 17-maydagi Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki Boshqaruvchilar kengashi yig‘ilishidagi nutqida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2022-yil 29-iyul kuni poytaxtimizdagi Shanxay hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi yig‘ilishi rahbarlari bilan bo‘lgan uchrashuv mohiyati va mazmuni.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2022 yil 20 dekabrdagi Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

6. 2022 yil 21-iyul kuni Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining navbatdagi Maslahat uchrashuvidagi ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 4 apreldagi PQ-232 sonli “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi Qarori mohiyati.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 29 iyuldagi PQ-338 sonli “Turkiy davlatlar bilan turizm sohasidagi hamkorlikni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi Qarori mohiyati.

9. 2019 yil 18 iyulda qabul qilingan “Turizm to‘g’risida”gi yangi qonundagi asosiy o‘zgarishlar.

10. Turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

11. Erkin iqtisodiy zonalar va kichik sanoat zonalarini tashkil etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

12. Mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash va uning jozibadorligini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

13. Raqamli iqtisodiyotni asosiy «drayver» sohaga aylantirib, uning hajmini kamida 2,5 baravar oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

14. Turizm va madaniy meros ob’ektlari infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

15. Turistik zonalar va dam olish maskanlarini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

16. Turizmda transport xizmatlari bozori hamda infratuzilmasini rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

17. Dam olish maskanlari, ko‘ngil ochar tadbirlarni tashkil etish, ichki turizmni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

18. Mamlakatda turizm xizmatlari hajmini oshirish borasida amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

19. Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlarda turizmning o‘rni.

20. 2022 yil 21 iyunda bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston va Ozarbayjon Prezidentlari muzokaralarida ilgari surilgan iqtisodiy masalalar mohiyati.

21. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish Bu borada belgilangan amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

22. 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish belgilangan amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushuntirib bering.

23. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 1 yanvardagi PF-52 sonli “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qo‘shimcha sharoitlar yaratish to‘g‘risida” gi Farmoni mohiyati.

24. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 29-mart kuni mamlakatimiz turizm salohiyatini oshirish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishidagi asosiy vazifalar.

25. O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish yo‘nalishlarini sanab bering.

26. Turistlarni avtotransport yordamida tashishni tashkil qilishning Xalqaro munosabatlari qaysi bitim asosida tartibga solinadi?

27. Turizm mamalakatlarida tashkil qilingan Turizm politsiyasi zimmasidagi vazifasiga nimalar kiradi?

28. Turizm sohasining mamlakat ijtimoiy hayotidagi o‘rnini qanday izohlaysiz?

29. Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha qanday me’yoriy-huquqiy asoslar bilan tanishsiz?

30. Mamlakatimizda zamonaviy turizmni rivojlantirish siyosatining mohiyati.

31. Mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar mohiyati.

32. Mamlakatimizda ziyorat turizmini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar mohiyati.

33. O‘zbekistonning turizm sohasidagi asosiy hamkor mamlakatlari va ular bilan hamkorlik yo‘nalishlari haqida qanday ma’lumotga egasiz?

34. Turizm sohasidagi islohotlarning asosiy maqsadi.

35. Turizm sohasida investitsiyaviy jozibadorlikning hozirgi holati haqida qanday fikrdasiz?

36. Turizmning mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni va ahamiyati.

37. Turistlarni avtotransport yordamida tashishni tashkil qilishning Xalqaro munosabatlar bitimi mohiyati.

38. Mamlakatimizda ekologik turizmini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar mohiyati.

39. Mamlakatimizda turizmni rivojlantirishda Xalqaro tashkilotlarnig o‘rni va roli.

40. Turizmning iqtisodiyot tarmog’i sifatidagi evolyutsiyasi va rivojlanish bosqichlari.

**61010100– “MEHMONXONA XO‘JALIGINI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH” ta’lim yo‘nalishi sohasida bilim va kasbiy ko‘nikmalarining mavjudligi bo‘yicha savollar**

1. Mehmonxona va ulardagi xizmatlarning rivojlanish tarixini tushuntirib bering.
2. Zamonaviy mehmonxonalarning qanday turlarini bilasiz.
3. Mehmonxonalarni tasniflash tizimlarini tushuntirib bering.
4. Mehmonxonalarning me’morchilik va texnik yechimlari haqida ma’lumot bering.
5. Mehmonxonalarda ko‘rsatiladigan asosiy va qo‘shimcha xizmatlarni tushuntirib bering.
6. Mehmonxona biznesida xizmat ko‘rsatishning mohiyati nimalardan iborat?.
7. Mehmonxonalarda qabul qilish va joylashtirish xizmatini tashkil etish qanday amalga oshiriladi?
8. Mehmonxona nomer fondiga xizmat ko‘rsatishni tashkil etish qanday amalga oshiriladi?
9. Mehmonxonadagi yordamchi xizmatlarga nimalar kiradi?
10. Mehmonxonalarda ovqatlantirish xizmatini tashkil etish jarayonini tushuntirib bering.
11. Mehmonxona uchun sanitariya-gigiyenik talablar nimalardan iborat?
12. Mehmonxonada turistlarning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish yo‘llarini tushuntirib bering.
13. Mehmonxonalarda sifatli xizmat ko‘rsatishni tashkil qilish qanday amalga oshiriladi?
14. Mehmonxona xodimlari faoliyatini tashkil etish tamoyillarini tushuntirib bering.

15. Mehmonxona xodimlari va mijozlari o‘rtasidagi munosabatlar etikasi nimalardan iborat?.

16. Mehmonxona mijozlari psixologiyasini o‘rganishning zaruratini tushuntirib bering.

17. Mehmonxona xo‘jaligi faoliyati samaradorligini oshirish yo‘llarini tushuntirib bering.

18. O‘zbekiston mintaqalarida mehmonxona biznesining rivojlanish tendensiyalarini tushuntirib bering.

19. Mehmonxona xo‘jaliklarini rivojlantirishning ob’ektiv zaruratini tushuntirib bering.

20. Turizm sohasini rivojlantirishda mehmonxona xizmatlarining ahamiyati nimalardan iborat?

21. Mehmonxonalar qachon va qayerda paydo bo‘lgan?

22. Dastlabki mehmonxonalar qanday ko‘rinishga ega bo‘lgan?

23. Mehmonxonalarning rivojlanishida qanday shaxslar o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shgan?

24. “Statler xizmatchisining kodeksi” ning ahamiyatini niamlardan iborat?

25. Statler mehmonxona bznesining rivojlanish yo‘lida qanday ishlarni amalga oshirdi?

26. Sezer Rits mehmonxona biznesining rivojlanishida qanday ishlarni amalga oshirdi?

27. Konarad Hilton mehmonxona biznesining rivojlanishiga qanday hissa qo‘shdi?

28. Mehmonxonalar qanday xususiyatlariga ko‘ra turlarga ajratiladi?

29. Joylashgan joyiga ko‘ra mehmonxonalar qanday turlarga ajratiladi?

30. Botel mehmonxonaning qanday turi?

31. Motel mehmonxonaning qanday turi va u boshqalaridan qanday farqlanadi?

32. Ixtisoslashgan mehmonxonalarning qanday turi mavjud?

33. Dunyoda mehmonxonalarni tasniflashning qanday tizimlari mavjud?

34. Mehmonxonalarni tasniflashning Fransiya milliy tasniflash tizimni tushuntiring.

35. Mehmonxonalarni tasniflash jarayonidagi bosh mezon nimalardan iborat?

36. Mehmonxonalarni tasniflashda shnamlik darajasiga qanday talablar qo‘yiladi?

37. Britaniya turistik agentliklari uyushmasi mehmonxonalarni qanday toyifalarga ajratishni taklif qilgan?

38. Bir mamlakat doirasida bir necha tasniflash tizimlaridan foydalanish mumkinmi? Misollar bilan tushuntiring.

39. Mehmonxonalar qurilishining ko‘p yillik amaliyotida qanday tavsiyalar ishlab chiqilgan?

40. Mehmonxonalarni loyihalashda, qoida tariqasida, qanday o‘ziga muammolar vujudga keladi?

41. Mehmonxonalarning elektron (magnitli) qulflari qanday qulayliklarga ega?

42. Mehmonxonaning jamoat qismida mehmonlarga xizmat ko‘rsatish qanday talablarga javob berishi kerak?

43. Mehmonxonaning mijozlar yashaydigan qismi va unga xizmat ko‘rsatish tartibini tushuntiring.

44. Front Office  bu mehmonxonaning qanday bo‘limi hisoblanadi va uning vazifalariga nimalar kiradi?

45. Ikkikarrali bron deganda nimani tushunasiz?

46. Mehmonxona restorani ish faoliyati boshqa oddiy restoranlar ish faoliyatidan qanday farq qiladi?

47. Mehmonxona xodimlarining mehnat munosabatlari etikasini tushuntirib bering.

## BAXOLASH ME’ZONLARI

Suhbat jarayonida abituriyentlarning har biriga quyidagi mavzular bo‘yicha bittadan jami to‘rtta savol beriladi:

- mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarning mohiyati va ahamiyati;
- belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishini tanlashdan asosiy maqsad;
- belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishiga mos mehnat faoliyati davomida erishgan yutuq va natijalar;
- belgilangan bakalavriat ta’lim yo‘nalishi sohasida bilim va kasbiy ko‘nikmalarning mavjudligi.

Yuqorida ko‘rsatilgan savollar yuzasidan o‘tkazilgan suhbat jarayonida ***olish mumkin bo‘lgan maksimal ball miqdori 100 ballni tashkil etadi va baholash yaxlitlangan holda butun sonlarda ifodalanadi. Bunda har bir savol uchun maksimal 25 balldan ajratiladi.***

Suhbat natijalari bo‘yicha to‘plagan umumiy ball quyidagi mezonlarga asoslanadi.

| **T/r.** | **Baho** | **Xususiy ball** |
|---|---|---|
| 1 | A’lo | 86,0-100 |
| 2 | Yaxshi | 71,0-85,0 |
| 3 | Qoniqarli | 56,0-70,0 |
| 4 | Qoniqarsiz | 0-55,0 |

Muayyan ta’lim yo‘nalishi (guruh) bo‘yicha suhbat jarayoni yakunlangach Suhbat komissiyasi a’zolari tomonidan to‘ldirilgan suhbat natijalarini qayd etish varaqlaridagi ballar hisoblab chiqiladi va shu asosida suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘i to‘ldirilib, Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlanadi.

Suhbat komissiyasi tomonidan tasdiqlangan suhbatning yakuniy natijalarini qayd etish varag‘iga asosan Suhbat komissiyasining ishtirok etgan a’zolari tomonidan qo‘yilgan ballarning o‘rtachasi ***55 balldan yuqori bo‘lganda abituriyent suhbatdan o‘tgan hisoblanadi***.

## TAVSIYA ETILADIGAN ADABIYOTLAR

### *Asosiy adabiyotlar*

1. O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 19.07.2019 y., 03/19/549/3446-son

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-sonli Farmoni.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016 yil 2 dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” PQ-2666-sonli Qarori.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi, “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli Farmoni. //O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2017 y., 6-son, 70-modda.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustdagi «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-3217-sonli Qarori.

6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-5326-sonli Farmoni.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 6 fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3509-sonli Qarori.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 7 fevraldagi “Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3514-sonli Qarori.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi “Turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4095-sonli Qarori.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 28 maydagi “Koronavirus pandemiyasining salbiy ta’sirini kamaytirish uchun turizm sohasini qo‘llab-quvvatlashga doir kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-6002-sonli Farmoni.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 19 iyundagi “Turizm sohasini sanitariya-epidemiologik xavfsizlikning kuchaytirilgan rejimi talablariga qat’iy rioya qilgan holda rivojlantirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4755-sonli Qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 5 oktyabrdagi “Raqamli O‘zbekiston — 2030” Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli Farmoni.

14. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 15 yanvardagi “Turizm, madaniyat, madaniy meros va sport sohalarini yanada rivojlantirish uchun qoʻshimcha sharoitlar yaratish toʻgʻrisida”gi PF-52-sonli Farmoni.

15. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 27 yanvardagi “Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-104-sonli Qarori.

16. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi PF-60-sonli Farmoni.

17. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 18 fevraldagi “Turizm, madaniy meros va sport sohalarida davlat boshqaruvini takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PF-75-sonli Farmoni.

18. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 30 apreldagi “Ichki turizm xizmatlarini diversifikatsiya qilishga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida”gi PQ-232-sonli Qarori.

19. Aliyeva M.T. Mehmonxona menejmenti. Darslik. T.: 2007. -340 b.

20. Amriddinova R.S., Aliyeva M.T, Raximov Z.O., Ibadullayev N.E., Abduhamidov S.A. Mehmonxonalarda xodimlar faoliyatini boshqarish. Oʻquv qoʻllanma. T.: “Fan va texnologiyalar” 2018 y.

21. Байлик С.И. Гостиничное хозяйство: организация, управление, обслуживание / С.И. Байлик. - Киев: Альтерпресс, 2008. - 329 с.

22. Бондаренко Г.А. Гостиничное и ресторанное хозяйство. 2-изд. Мн.: БГЭУ, 2001.

23. Tuxliyev I.S. Abduhamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik (Uchinchi nashr) –T.: “Fan va texnolo-giyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 424 bet.

24. Волков Ю.Ф. Экономика гостиничного бизнеса : учебное пособие. Ростов: Феникс, 2005.-380 с.

25. Волков Ю.Ф. Гостиничный и туристический бизнес.- Ростов-на-Дону, “Феникс”, 2009. – 637 с.

26. Eshtayev A.A., Norchayev A.N., Roʻziyev S.S. Oʻzbekiston Respublikasida turizm xizmati va servis sohasini rivojlantirish yoʻllari. T.: TDIU, 2007. – 38 bet.

27. Шарифова, Ш.Ш. Возможности улучшения гостиничного сервиса / Ш.Ш. Шарифова // Экономика и бизнес. – 2020. – с. 38-402.

28. Xoliqulov A.N. “Mehmonxonalarda servis sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari (Samarqand mehmonxonalari misolida)” i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiya. – S.: SamISI, 2010 y. - 169 b.

## *Qoʻshimcha adabiyotlar*

1. Шматько Л.П.и др. Туризм и гостиничное хозяйство. – М.: ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д.: ИЦ МарТ, 2003.

2. Федцов В.Г. Культура гостинично-туристического сервиса: учебное пособие. – Ростов н/Д : Феникс, 2008. – 503 с.

3. Tuxliyev I.S., Po‘latov M.E., Berdimurodov A.Sh. “Turizm atamalarining izohli lug‘ati”. Lug‘at. S.:. 2021 y.

4. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Услуги, технологии и продукты в туризме.-Т.: Гос. Науч. Изд-во “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2009 – 624 с.

5. Тухлиев Н., Абдуллаева Т. Национальные модели развития туризма. - Т.: “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2006.- 424 с.

6. Тарасенко А.К. Современные методы управления лояльностью клиентов гостиничного предприятия / А.К. Тарасенко // международный научный журнал «Инновационная наука». – № 1. – 2016. – С. 180-189.

7. Tuxliyev I.S., Hamitov M.X., Abduhamidov S.A. Mehmonxona xo‘jaligining servis faoliyatida mijozlar bilan muomala qilish qoidalari // “Turizm xizmatlari va servisini rivojlantirishning xalqaro ilg‘or tajribasi va uni o‘zbekistonda qo‘llash masalalari” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjumani (2018 yil, 25-28 may) I-qism, 332-335 b.

8. Tuxliyev I.S. Hamitov M.X., Mehmonxonalarning nomer fondini boshqarishning tashkiliy tamoyillari // “O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishda tabiiy va etnografik resurslardan samarali foydalanish muammolari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. Samarqand 2019 yil 13-14 noyabr. 128-131 b.

9. Hamitov M.X. Mehmonxona xo‘jaligida servis sifatini baholash va mijozlarning mamnunlik darajasiga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash // Servis. - 2022, Maxsus son. B. 147-154.

***Internet saytlari***

1. http://press-service.uz
2. http://www.stat.uz
3. http://www.samarqand.uz
4. http://www.lex.uz
5. https://wttc.org
6. http://scientificjournal.ru
7. http://tourfaq.net
8. https://www.unwto.org
9. https://xs.uz
10. https://www.norma.uz